



“BOBURNOMA”DA MUALLIF SIYMOSI

Qo'chqorova Mahliyo Hayitboyevna

Urganch shahar 30-son IDUM O'zbek tili fani o'qituvchisi

Qutlimurotova Fotima

Urganch tumani 31-son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Boburnoma” asari haqidagi tahliliy fikrlar keltirilgan. Bobur shaxsiyatining ayrim jihatlari va bu hususiyatlarning hozirgi kunda ham dolzarb ekanligi qalamga olingan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy olam, memuar, hasbi hol, qomusiy, so'z san'atkori, sharob, may, qadah, ziddiyat, valiy, ranj, darvesh.*

Boburmirzo xalqimizning buyuk farzandi.

Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti.

Sh. Mirziyoyev.

Inson yaralibdiki, moddiy va ma'naviy olam uning hayotida akslanadi – ilm-ma'rifat doimiy hamrohiga aylangan. Tarixga nazar tashlasak, ajdodlarimiz o'zlarining o'lmas asarlari bilan iz qoldirganligining guvohi bo'lamiz. Shunday so'z san'atkorlaridan biri, shubhasiz, vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur she'riyatidagi “hasb-u hol”lik, ajib tashbehlar-u qochirimlar, so'z qo'llashdagi teranlik va sodda tillilik kishini beihtiyor o'ziga maftun etadi. Ha, hamyurtimiz yashab ijod etgan davrda she'riyatga – nazmga e'tibor nihoyatda kuchli bo'lgan. Ana shunday sharoitda Bobur o'zining buyuk memuar asari “Boburnoma”ni yaratdi.” *Boburnoma*” - nasriy asar. Shu bilan birgalikda, unda Bobur hazratlarining diniy, dunyoviy, falsafiy va ijtimoiy qarashlari aks etgan.

Salohiyatli sarkarda, hassos shoir, yetuk adabiyotshunos va tilshunos, tarixchi hamda musiqa ilmining bilimdoni bo'lgan Boburning bu asarini mutolaa qilar ekansiz, uning nihoyatda teran aql soxibi ekanligidan hayratlanasiz. Chunki, asar qomusiy xarakterga ega va muallif har bir aytayotgan fikrlariga ilmiy nuqtayi nazar bilan yondashgan. Akademik Bartold tili bilan aytganda: *“Boburnoma” faqat siyosiy kurashlar hujjatigina bo'lib qolmay, XV asrdayoq haqqoniy ravishda turkiy nasrning mumtoz realistik namunasi deb topilgan yodgorlikdir*. “Boburnoma” - tarixiy asar. Unda XVI asr Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston tarixi atroflicha yoritilgan. “Boburnoma”ni badiiy va tilshunoslik asari ham deyish mumkin. Asarda maqollar, tashbehlar, hikmatli so'zlardan keng foydalanilgan. Bundan tashqari, joy nomlari etimologiyasi, tilshunoslik, xususan, fonetik hodisalar ifoda etilgan. Bobur o'zi kashf etgan “*Xatti Boburiy*” yozuvi haqida ham to'xtalib o'tgan. Bundan tashqari, asarda Boburning geografik, biologik, zoologik, matematik qarashlari ham aks etgan. Bilamizki, har bir





ijod maxsuli zamirida, avvalo, ijodkorning lirik qahramoni yashiringan bo'ldi. Mana shu asarda ham Bobur shaxsi, dunyoqarashi va ruhiy holatlari haqidagi ma'lumotlarning ayrimlarini e'tiboringizga havola qilmoqchimiz. Zahiriddin Muhammad Boburning samimiy inson ekanligi o'zi va yaqinlari haqidagi har bir ma'lumotni ro'yi-rost keltirishidan ham ma'lum: "O'limni bo'yinga oldim. O'sha bog'da bir suv oqib kelardi, tahorat oldim. Ikki rakaat namoz o'qidim. Boshimni munojotga qo'yub tilak tilayotgan edimki, ko'zim uyquga ketibdi. Tush ko'rayapman: Xoja Ya'qub (Xoja Yahyoning o'g'li, hazrati Xoja Ubaydullohning nabiralari) ro'paramda oq-qora tusdagi otda, shunday ot mingan ko'p otiqlar bilan keldilar. "G'am yemangiz, Xoja Ahror meni sizga yubordilar", - dedilar. "Biz ularga Ollohdan madad so'rab, podshohlik taxtiga o'lturgaymiz. Har yerda mushkul ish tushsa, bizni nazariga kelturub yod etsin. Biz o'sha yerda hozir bo'lurmiz", - deb tayinladilar. Hozir ushbu soatda fath va g'alaba sizning tomondadir.

Bu voqea Karnon degan joyda o'lim bilan yuzma-yuz turgan bir paytda ro'y beradi. Adibo'zining ojiz qolgani, Xo'ja Ahror tufayli zafar qozonganini yashirmaydi. Muallif 1500-1501-yillar voqealari haqida so'zlar ekan, ikkinchi marta ham Xo'ja Ahror ko'magi bilan Samarqandni olganini aytib o'tadi. Bu safar ham Valiy uning tushida namoyon bo'ldi. Bobur bemorlikda darddan azob chekayotgan paytda Xo'ja Ahrorning "Volidiya" asarini she'riy yo'lda tarjima qiladi va tarjima tugagan kuni shifo topadi.

*Kelgilki, dami o'lturubon may ichaylik,
Dunyo g'am-u ranjidan zamon kechaylik.*

May ichish islom dinida qattiq qoralanadi. Bobur bu masalani yaxshi tushunsa-da, hayotdagi ziddiyatlarga chiday olmay mayxo'rlikka beriladi. U "dunyo g'am-u ranjidan" ma'lum fursat forig' bo'lish vositasi sifatida mayga ruju qo'yadi.

*Keldi ramazon-u, men taqi bodaparast,
Iyd o'ldi-yu, zikri may qilurman payvast.
Ne ro'za-u ne namoz yillar, oylar,
Tun-kun may-u, ma'jun bila devona-u, mast.*

Ko'rinib turibdiki, Bobur mayxo'rlikka mukkasidan ketganini ham yashirmaydi. U shunchalik mayni ko'p iste'mol qilganidan kunlarning birida og'zidan qon keladi. "Boburnoma"ga yuzlanamiz: "Jumod ul-avval oyining yigirma uchinchisida, dushanba kuni sayr qilishga otlandim. Sayr chog'ida ko'nglimga bir fikr keldi: har doim ko'nglimda hamisha tavba tashvishi yurardi, shariatga hilof ish qilish hamisha ko'nglimga g'ubor solardi". Shu voqeadan so'ng Bobur barchani to'plab may idishlari va oltin-kumush qadahlarni sindirishga da'vat etadi. O'sha kuni beklar, amaldorlar, askar va askar bo'lmaganlardan uch yuzga yaqin kishi tavbaga ergashadi. Sindirilgan oltin-kumushlar munosib kishilar va darveshlarga ulashiladi. Bobur bu bilan cheklanib qolmay, ichkilikni taqiqlovchi maxsus farmon chiqaradi: "... Hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, sotmasin va olmasin va keltirmasin. Ichkilikdan qochinglar, shoyad najot topsanglar". Buyuk davlat arbobi,





teran aql va ijod soxibi, mehribon ota bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida mana shunday hayotiy xatolarini ro'yi-rost yoritgani, tavba-tazarru bilan boshqalarga o'rnak ko'rsata olgani, hattoki, hozirgi avlod uchun ham bu ishlar dolzarb ekani bilan qadrlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaldirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasi.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".
3. Navoiy asarlar lug'ati.
4. Primqul Qodirov. "Yulduzli tunlar".
5. B. Jalilov. "Boburnoma" jilolari.

